

## EKOLOGIYA BUZILISHNING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI

**Mahliyoxon Qodirova**

*Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti 2-bosqich talabasi*

### **Annotatsiya**

*Maqolada ekologik buzilishning tabiiy muhit, inson salomatligi hamda oziq-ovqat mahsulotlariga salbiy ta'siri, bugungi kundagi statistik ko'rsatkichlar, olib borilayotgan ishlar, rejalar va bu muammoni bartaraf etish chora-tadbirlari xususida so'z boradi.*

### **Kalit so'zlar**

*ekologiya, respirator kasalliklar, psixologik ta'sir, qayta ishlash, tabiiy resurslar.*

### **KIRISH**

Inson hech qachon tabiatsiz yashay olmaydi, chunki u tabiatning ajralmas bir qismidir. Biz yashayotgan ajoyib muhit har bir qadamda bizni o'zining go'zalligi va sirli yangiliklari bilan kutib oladi. Tabiat o'zining har bir jabhasida inson uchun zarur bo'lgan minglab unsurlarni mujassam etgan.

Afsuski, ana shunday go'zal tabiatimiz bugunga kelib qay ahvolga tushmoqda? Ekologik muammolar bugungi kunda global ko'rinish kasb etmoqda. Iqlim o'zgarishi, dunyoning turli nuqtalarida sodir bo'layotgan tabiiy ofatlar, ekologik halokatlar — barchasi tabiatga bo'lgan munosabatimiz natijasidir. Aniqroq aytadigan bo'lsak, insoniyat uni o'rab turgan barcha shart-sharoitlarga moslasha oladi. Agar moslasha olmasa, uni o'z istaklariga moslashtiradi. Natijada tabiat muvozanati buzilib, katta talofatlarga sabab bo'ladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Tirik mavjudotlarni o'rab turgan ekologik muhit, asosan, insoniyat tomonidan salbiy tomonga o'zgartirib yuborildi. Buning asosiy sababi zavod-fabrikalar, transport vositalari va ulardan chiqadigan chiqindilardir [2-11].

Bu o'zgarishlar atrof-muhitni shu darajada o'zgartirdiki, barcha tirik mavjudotlar qatori inson salomatligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Havo ifloslanishi shahar hududlarida respirator kasalliklar, yurak-qon tomir kasalliklari va allergiyalarni kuchaytirdi. Tuproq ifloslanishi natijasida esa oziq-ovqat xavfsizligining tahdid ostida qolishiga sabab bo'ldi.

Buyuk mutafakkir bobomiz Abu Ali ibn Sinoning hozirda "Ekologiya" deb yuritilayotgan atrof-muhitning deyarli barcha omillari, ularga insonning ta'siri va bu omillarning insonga ta'siri to'g'risidagi mashhur iboralari yuqoridagi fikrlarimizning yorqin dalilidir. "Agar chang-g'ubor bo'lmaganida, inson ming yil umr ko'rgan bo'lur edi" yoki "Havo toki muvozanatlangan va toza bo'lsa, unga begona qo'shimchalar qo'shilmasa, u salomatlik garovi bo'ladi, aks holda turli kasalliklarga sabab bo'ladi" [6-9].

Jahon statistik ma'lumotlariga ko'ra, aholining 10% qarilikdan, 20% baxtsiz hodisalar va janglardan, 70% esa kasalliklardan vafot etmoqda. Shuningdek, sog'lig'imizning atiga 10% qismi tibbiyotga, qolgan 90% qismi esa atrof-muhit hodisalariga bog'liqdir. "Tib qonunlari"da shunday deyilgan: "Turar joy tanaga turlicha ta'sir qilishi mumkin: baland yoki past joyligi, tuproq tarkibi, suvning seroblighi, daraxtlarning mo'lligi yashash joyi tanlaganda muhimdir." Bu fikrlar esa ekologik muhitning inson salomatligiga nechog'lik

ta'siri katta ekanligidan dalolat beradi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi kunga kelib ekologik muammolar inson salomatligiga jiddiy tahdid tug'dirmoqda. Global-gumanitar forum ma'lumotlariga ko'ra, sayyoramizda ro'y berayotgan iqlim o'zgarishi yiliga uch yuz ming insonning umriga zomin bo'lmoqda.

Bunga misol sifatida, 2022-yilda Yevropa mamlakatlarida yuqori haroratlar sababli alyuminiy allergiyalar ko'paydi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, havo ifloslanishi natijasida yiliga 4,2 million odamning hayoti kuchli tahdid ostida qoladi.

Bunday global muammolar Markaziy Osiyo mintaqasi taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Orol fojeasi, buning ta'sirida kelib chiqayotgan tabiiy tangliklar, cho'llanish muammosi bunga misoldir. Bundan tashqari, yer yuzi hamda insoniyatga katta ta'sir o'tkazayotgan eng muhim omillardan biri — nurlanishdir.

Uni na ko'rib, na eshitib bo'ladi. Biroq uning ta'sirida inson organizmidagi sistemalarning o'zaro bog'liqligi buzilib, tanani aql va idrok bilan boshqaruvchi generator — miya o'zgarishlarga duch kelmoqda. Bu kichik nurlanishdan aholining ma'lum guruhlari, ayniqsa homilador ayollar, o'sish va rivojlanish ketayotgan bolalar, qariyalar aziyat chekmoqda.

Nurlanishdan tashqari ayrim ishlab chiqarish korxonalaridan chiqayotgan zararli chiqindilar va tutunlar ham aholi salomatligiga zarar yetkazmoqda. Hozirgi kunda turli zavod va fabrikalarda 45 ming turga yaqin kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarilib aholiga sotilmoqda. Ishlab chiqarishda foydalanilayotgan ayrim moddalar turli yuqumli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ekologiya buzilishi inson salomatligi uchun jiddiy tahdidlarga olib kelmoqda. Mamlakatimizda ekologiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning uzviy davomi sifatida, yurtimizda 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi.

Tabiatni va tabiiy muhitni asrash har bir fuqaroning burchidir. Chiqindilarni qayta ishlash nafaqat iqtisodiy jihatdan foyda, balki, yerni, havoni, suv va tuproqni, jamiki oziq-ovqat mahsulotlarining ifloslanishini oldini oladi va kishilar sog'lig'ini saqlashda katta yordam beradi.

Ekologik madaniyatni oshirish, chiqindilarni kamaytirish va qayta tiklanadigan manbalardan foydalanish atrof-muhit hamda insoniyat uchun katta foyda keltiradi. Ekologiyaning muhofazasi va barqaror rivojlanishi insoniyat kelajagi uchun muhimdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Biology (Textbook for academic lyceums and professional colleges)
2. Rustamova, R. (2022). Academic Research in Educational Sciences.
3. Nazarov, A. (2021). The impact of chemical industry on the environment. Eurasian Journal of Academic Research.
4. Xudoyqulova, N. (2018). Пути воспитания молодежи. Наука, техника и образование.